

---

## Qo'shtepa tumani delegatsiyasi amaliy tashrif bilan Xitoy Xalq Respublikasida

Qo'shtepa tumani hokimining investisiya masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Taniqulov boshchiligidagi qo'shtepalik bir guruh tadbirkorlardan iborat delegatsiya ayni damda hududlararo investisiyaviy va savdo-iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida amaliy tashrif bilan Xitoy davlatida bo'lib turibdi.

Tashrif davomida Qo'shtepa tumanida mexmonxona qurish bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasining "Xinjiang Hanjie Manufacturing" Co. Ltd. kompaniyasi bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga hizmat qiluvchi yangi qo'shimcha jami 11 mln AQSH dollarlik investisiya loyihalari va kelishuvlar imzolandi.

2024-12-20 08:39:45